

QALAMTASVIRDA KOMPOZITSIYA ISHLASHNING ZAMONAVIY USULLARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17655455>

Laziz Ubaydullayev Jalolovich

*Qarshi davlat universiteti "San'atshunoslik" Fakulteti
rangtasvir va amaliy san'at kafedrasi dotsenti*

Annotatsiya

Maqolada qalamtasvir san'atida kompozitsiya yaratishning zamonaviy yondashuvlari, akademik chizmachilik an'analari asosida shakllangan metodlar, chiziq, nur-soya, konstruktiv qurilish va tonal yechimlar bilan ishlashning hozirgi davrda takomillashgan usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, kompozitsiyaning psixologik, estetik va konstruktiv tamoyillari, qalamtasvirning badiiy imkoniyatlari hamda zamonaviy o'qitish metodlari ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi.

Kalit so'z

chiziq, nur-soya, ton, kompozitsiya, qalam tasvir, ritm, kontras, proporsiya, kompozitsion og'irlik.

СОВРЕМЕННЫЕ МЕТОДЫ РАБОТЫ С КОМПОЗИЦИЕЙ В РИСУНКЕ КАРАНДАШОМ

Лазиз Убайдуллаев Джалолович

*Каршинский государственный университет, факультет искусствоведения
Доцент кафедры живописи и прикладного искусства*

Аннотация

В статье анализируются современные подходы к созданию композиции в технике карандашного рисунка, методы, сложившиеся на основе традиций академического рисунка, и совершенствующиеся в настоящее время методы работы с линией, светом и тенью, конструктивного построения и тонального решения. Рассматриваются психологические, эстетические и конструктивные принципы композиции, художественные возможности карандашного рисунка, современные методы обучения с научной точки зрения.

Ключевые слова

линия, свет и тень, тон, композиция, карандашный рисунок, ритм, контраст, пропорция, композиционный вес.

MODERN METHODS OF WORKING WITH COMPOSITION IN PENCIL DRAWING

Laziz Ubaydullayev Jalolovich

Karshi State University, Faculty of Art Studies

Associate Professor, Department of Painting and Applied Arts

Abstract

The article analyzes modern approaches to creating a composition in the art of pencil drawing, methods formed on the basis of the traditions of academic drawing, and currently improved methods of working with line, light and shadow, constructive construction, and tonal solutions. It also covers the psychological, aesthetic, and constructive principles of composition, the artistic possibilities of pencil drawing, and modern teaching methods from a scientific perspective.

Keywords

line, light and shadow, tone, composition, pencil drawing, rhythm, contrast, proportion, compositional weight.

Qalamtasvir tasviriy san'atning barcha yo'nalishlari uchun asosiy poydevor hisoblanadi. Rassomlikda ham, grafikada ham, haykaltaroshlikda ham kompozitsion fikrlash aynan oddiy chiziq va shakllardan boshlanadi. Shuning uchun ham kompozitsiyani o'rganish jarayoni avvalo qalamtasvirda shakllanadi. Chiziq, proporsiya, fazo, markaz, kompozitsion og'irlik, ritm, kontrast kabi tushunchalar avvalo qalam orqali idrok qilinishi talab etiladi. Zamonaviy san'atda qalamtasvirning o'рни yanada mustahkamlanib bormoqda. Raqamli vositalar keng tarqalgan bo'lsa ham, kompozitsion fikrlashning asosiy yo'nalishlari aynan qo'lda bajariladigan qalamtasvir orqali eng toza va sodda shaklda namoyon bo'ladi. Hozirgi davr rassomlari va pedagoglari qalamtasvir kompozitsiyasini o'rgatishda yangi psixologik va konstruktiv metodlardan foydalanmoqda. Kompozitsiya va chiziqning o'zaro bog'liqligi muhim ahamiyat kasb etadi. Qalamtasvirda chiziq – kompozitsiyaning bosh qurilish materiali hisoblanadi.

Chiziqlar:

shakllarni belgilaydi;

makon tuzilishini beradi;

kompozitsion markazga yo'naltiradi;

ritm va harakatni belgilaydi. Shu boisdan zamonaviy yondashuvda chiziqning hissiy holati, zichligi, elastikligi va yo'nalishi kompozitsion ta'sirning asosiy vositasiga aylanadi. Kompozitsiya ishlashda nur-soya kompozitsion

shakllantiruvchi omil sifatida qaraladi va quydagi vazifalarni bazajadi. markazini ajratadi, ikkilamchi bo'laklarni susaytiradi, ritmni kuchaytiradi, obrazning ruhiy holatini belgilaydi.

Bugungi metodikalarda kompozitsiyani avval tonal bo'laklarga ajratish, keyin esa detallashtirish yondashuvi keng qo'llaniladi. Konstruktiv qurilish – zamonaviy qalamtasvirning asosi. Hozirgi akademik maktablarda kompozitsiya avvalo konstruktsiyadan boshlanadi. Buyumlar geometrik shakllarga ajratilib, ularning proporsiyasi, o'qi, og'irlik markazi, fazoviy joylashuvi aniqlanadi. Bu jarayon kompozitsion aniqlik va barqarorlikni ta'minlaydi. Qalamtasvirda kompozitsiyaning zamonaviy yondashuvlari "Eng umumiydan eng xususiyga" prinsipining takomillashtirilgan shakliga ko'ra bugungi metodikalarda dastlab:

1. kompozitsion format tanlanadi;
2. asosiy massalar joylashtiriladi;
3. nur-soya taqsimlanadi;
4. keyin shakllar aniqlashtiriladi.

Bunda rassom bir vaqtning o'zida ham kompozitsion balansni, ham obrazning hissiy kuchini nazorat qiladi. Zamonaviy rassomlar avval kompozitsiyaning "tonal xaritasi"ni chizishni taklif qiladi. Unda: eng quyuq, o'rtacha, ochiq, yorug' joylar katta dog'lar shaklida belgilanadi. Bu usul kompozitsiyani tartibga solishda juda samarali. Tezkor eskizlar (sketching) orqali kompozitsion izlanish 15–30 soniyalik tez chizmalar kompozitsiyaning eng toza variantini topish uchun qo'llaniladi. Bu usul: fikrni tezlashtiradi, asosiy markazni aniqlaydi, ortiqcha tafsilotlarni cheklaydi.

Zamonaviy rassomlar bir mavzuga 30–40 ta tez eskiz qilishni tavsiya etadi.

Kompozitsiya avvalo quyidagi savollarga javob beradi:

Shakllar qayerga qarab harakatlanmoqda?

Kompozitsiyaning og'irlik markazi qayerda?

Ko'ruvchi nigohi qayerdan boshlanadi?

Qaysi element etakchi?

Bunday analitik yondashuv zamonaviy akademik o'quv dasturlarining asosiy qismi hisoblanadi. Qalamtasvirda kompozitsiya ishlashning bir qancha amaliy bosqichlari mavjud. Format va ko'rish nuqtasini tanlash bunda rassom: gorizontal yoki vertikal format, markaz joylashuvi, ko'ruvchi balandligi kabi masalalarni hal qiladi. Zamonaviy metodikada kompozitsiya avval geometrik tuzilma sifatida ko'riladi. Proporsiya va konstruktiv tahlil bunda asar elementlari: kenglik-bo'ylik nisbati, balandlik, burchaklar, asosiy o'qlar o'yicha aniqlanadi. Bu kompozitsion aniqlikning garantidir.

Tonning bosqichma-bosqich berilishi Zamonaviy texnikada:

1. umumiy ton;

2. yarim soya;
3. chuqur soyalar;
4. aks soya;
5. aks nur;

6. detallar ketma-ketligi orqali kompozitsiyaning butun nusxa ko'rinishi shakllantiriladi. O'zbekiston grafik rassomchiligida ham qalamtasvir kompozitsiyasi bo'yicha katta tajriba mavjud. Hozirgi rassomlar: qalamda portret va figurativ kompozitsiyalarni konstruktiv yondashuvda chizmoqda; milliy ornamentlarni dinamika va ritm orqali kompozitsion tamoyillarga bo'ysundirmoqda; peyzajlarda tonal balans va bo'sh fazodan samarali foydalanmoqda; akademik kompozitsiya bilan modernist kompozitsion yechimlarni uyg'unlashtirmoqda. Bu jarayon zamonaviy grafika rivojining muhim bosqichi sanaladi. Kompozitsiyani o'qitishning zamonaviy metodlari vizual tafakkurni rivojlantirish mashqlari orqali o'rgatiladi. Masalan Talabalar uchun: "5 daqiqalik kompozitsiya" mashqlari, "Bir shakldan 20 kompozitsiya", "Tonal markaz qidirish", "Bo'sh fazo bilan ishlash" kabi treninglar qo'llaniladi. Shu o'rinda aytish kerakki ko'rish psixologiyasi asosida kompozitsion fikrlashni ham rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'zning harakat yo'nalishi, vizual markaz, qiziqish nuqtalari va tasvirni idrok qilish mexanizmlari o'rganiladi. Qalamtasvir kompozitsiyasida bo'sh fazo (negativ makon) bilan ishlash Zamonaviy kompozitsiya metodlarida negativ makon — tasvirlanmagan joy — kompozitsiyaning faol qismiga aylangan. Bu fazo kompozitsiyaning nafas olishini, vizual kuchlanish yo'nalishini belgilaydi. Negativ makondan foydalanish prinsiplari quyidagilardan iborat: markazni belgilash; shakllar o'rtasidagi ritmni kuchaytirish; psixologik kayfiyat yaratish; shakllarning massalarini tenglashtirish. Qalamda ishlangan "Kitob va choynak" kompozitsiyasida kitob chap tomonda, choynak esa o'ng tomonda joylashgan bo'lsin. O'rtadagi bo'sh fazo (oq fon) shakllar o'rtasidagi masofani belgilab, kompozitsion simmetriyani yaratadi. Oq bo'shliqning shakli ham tasvirning bir qismi sifatida ishlaydi. Zamonaviy qalamtasvir kompozitsiyasida perspektiva va makon nihoyatda muhimdir. Klassik perspektiva zamonaviy kompozitsiyada ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Ammo bugungi yondashuvlar perspektivani: ko'rish psixologiyasi, fazoviy garmoniyaning tarkibiy qismi, vizual yo'nalish vositasi sifatida talqin qiladi. Qalamda havo perspektivasi chiziq zichligi va ton kuchi orqali beriladi: yaqin predmetlar — aniq kontur, to'q ton; uzoq predmetlar — yumshoq chiziq, oq parcha ko'proq. Old planda daraxt tanasi qalin chiziqlar bilan, o'rta planda yumshoqroq, uzoqda esa juda engil chiziqlar bilan berilgan. Bu makon chuqurligini yaratadi. Zamonaviy kompozitsiyada ekspressiv chiziq ishlatish ham ekspressionizm va grafika

maktablarining ta'sirida kompozitsiyada chiziqning hissiy kuchi alohida o'rin egalladi. Rassomlar chiziqlarning: tebranuvchan, siniq, kuchli bosimli, chalkash, to'liqinli ko'rinishlaridan foydalanadi.

Portretidagi ekspressiv kompozitsiya. Portretning soch qismida tez, harakatli chiziqlar; yuzda esa nozik, yumshoq chiziqlar ishlatiladi. Kompozitsiya chiziqning o'zgarishlari orqali ruhiy holatni ifodalaydi. Qalamtasvir kompozitsiyasining zamonaviy o'qitish modellariga modul ta'limi asosida yondoshsak har bir modul alohida kompozitsion ko'nikmaga yo'naltiriladi:

modul 1 – chiziq (ritm, dinamika);

modul 2 – ton (massalar taqsimoti);

modul 3 – fazo (perspektiva, proporsiya);

modul 4 – mazmun (hikoya va markaz). Zamonaviy kompozitsion metodlar qalamtasvirning badiiy imkoniyatlarini kengaytiradi, uni nafaqat akademik, balki konseptual va emotsional vosita sifatida ham ko'rsatadi. Qalamtasvir bugun ham tasviriy san'atning asosiy laboratoriyasi bo'lib qolmoqda, kompozitsion fikrlash aynan unda shakllanadi. Bu esa uni zamonaviy san'at jarayonining ajralmas bo'lagiga aylantiradi. Qalamtasvirdagi kompozitsiya san'atning poydevori bo'lib, zamonaviy yondashuvlar uning ilmiy, analitik va psixologik asoslarini yanada chuqurlashtirmoqda. Chiziq, ton, konstruktiv qurilish, fazo va ritm kabi elementlarning badiiy uyg'unligi orqali kompozitsiya yanada mazmunli va ta'sirchan bo'ladi. Bugungi davr metodikalari esa kompozitsiyani faqat akademik tamoyillar bilan emas, balki yangi pedagogik va psixologik texnikalar bilan ham boyitmoqda. Zamonaviy qalamtasvirga xos kompozitsion yondashuvlar san'at maktablari, rassomchilik studiyalari va oliy o'quv yurtlari dasturlarida keng qo'llanilmoqda. Ularning barchasi rassomning kompozitsion fikrlash darajasini oshirish, ijodiy izlanishlarini kengaytirish va badiiy tafakkurni teranlashtirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. S. Chingizov – “Akademik chizmachilik asoslari”.
2. V. Mogilevskiy – “Kompozitsiya nazariyasi”.
3. R. Ibragimov – “Tasviriy san'at metodikasi”.
4. K. M. Kabanov – “Grafika va qalamtasvir texnikasi”.
5. L. Arkhipov – “Chizmachilikda kompozitsiya”.
6. O'zbekiston Badiiy Akademiyasi materiallari, 2019–2024.